

## OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYASI YO'NALISHI TALABALARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

**Tashmurotov Asatullo Nasibullayevich**

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

[asatullo9999@gmail.com](mailto:asatullo9999@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda texnologiya yo'nalishida o'qitiladigan darslarning samaradorligini oshirish maqsadida interfaol metodlarni qo'llashning psixologik jihatlari ochishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, erkin fikirlovchi, innovatsiya, psixologik-pedagogik, trening.

### АННОТАЦИЯ

Данная статья направлена на раскрытие психологических аспектов использования интерактивных методов с целью повышения эффективности уроков, проводимых в сфере технологий на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** образование, свободомыслие, инновации, психолого-педагогическое, обучение.

Ta'lim tizimiga kirib kelayotgan yangilanishlar uning mazmunini, tuzilishini, usullarini qayta ko'rib chiqish, mukammallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Jumladan oliy ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas. Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan modul tizimi, reyting asosida baholash, yangi pedagogik texnologiyalar, test sinovlari shular jumlasidandir.

Hozirgi davr talabasi dunyoqarashi keng, erkin fikirlovchi voqelikka adekvat-to'g'ri baho bera oluvchi, o'tkir zehni, mustahkam irodali, qisqa qilib aytganda yuksak intellektual kuchga ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun esa ta'lim tizimiga yangi innovatsiyalarni ta'sis etish zarur va shartdir. Talaba (sust) tinglovchi-ob'vekt bo'lmay, ta'lim jarayonining (faol) ishtirokchisi - sub'ektiga aylanishi zarur bo'ladi.

Xo'sh, ushbu jarayonda integratsiyalarning roli qanday? Avvalambor integratsiya tushunchasining mohiyatini ko'rib chiqaylik. Psixologik-pedagogik nuqtai nazardan qaraganda integratsiya ijtimoiy-psixologik aspekt bo'lib, biror bir yangilikni ijtimoiy sohaga tezkorlik bilan tatbiq etish va ta'lim jarayonini jadallashtirish demakdir.

Innovatsiyalar esa faoliyat jarayonida turli ijtimoiy-psixologik to'siqlarni engish uchun shart-sharoit yaratib boradi. Ushbu jarayonda maqsadi, vazifasi va qiziqishlari

turlicha bo'lgan ijtimoiy guruhlar ishtirok etadi. Motivatsiyalar xarakterining tipi ham innovatsion faoliyat mazmuniga va sifatiga ta'sir o'tkazadi. Bundan tashqari innovatsiyalarni tatbiq etish jarayonida ustanovkalar, shaxsning yo'nalishi va ma'naviy axloqiy sifatleri ham ma'lum darajada ahamiyat kasb etadi.

V.I. Antanok fikricha talabalarni yangiliklar qabul qilish va unda ishtirok etishga tayyorgarligini shakllantirish, yangilikni qabul qilish qobiliyatini o'stirish maqsadida, bilish jarayonini aktivlashtiruvchi ijtimoiy-psixologik usullardan foydalanish lozim. Bunday usullarga psixologik treninglar, rolli o'yinlar va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim tizimiga kiritilayotgan yangi pedagogik texnologiya jarayoni ham innovatsiyalar va integratsiyalarning yorqin misolidir.

Qo'yilayotgan identiv maqsadlar, nazorat topshiriqlarni aniq fe'llarda ifodalanishi talaba aqliy faoliyatining rejasini yaqqol ko'rsatadi, o'z-o'zini boshqarishning yo'nalishini belgilaydi. Bu innovatsion faollikning aniq ko'rinishiga misol bo'la oladi. Aqliy faoliyatni jonlashtirishda ushbu yo'nalish maqsadlarni belgilashga yordam beradi. Maqsadning aniqligi esa, faoliyatning sermahsulligidir. Qachonki faoliyat o'zining ijobiy natijalarini berar ekan bu ayni muddaodir. Ammo ushbu jarayonni tashkil etishda talabalar o'quv faoliyatiga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy omillar turkumi mavjuddir:

- bilim maskanlarida zamonaviy texnik vositalar va asboblarning mavjudligi;
- turli xil to'garak, sektsiya, bilim uylari faoliyat ko'rsatishi va ularda qatnashish imkoniyatining borligi;
- oila muhitida yaratilgan moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar hamda shaxslarning ruhiy rag'batlanishi yo'lga qo'yilganligi;
- shaxslar bilan o'zaro muloqotlar o'rnatilishining uzluksizligi va oilada shaxslararo iliq psixologik muhitning hukm surishi;
- turli televizion viktorinalar, bahslar, tortishuvlar, zukkolik, ijodkorlik, tezkorlik bo'yicha musobaqalar uyushtirilishi va ularda qatnashish (ishtirok etish) imkoniyati yaratilganligi;
- ortiqcha informatsiya, xabarlar ko'lamini kamaytirish (masalan, videolar, avtomat o'yinlar);
- yoshlarni ro'zg'or ishlari bilan band qilib qo'yish, oila muhitida mehnatning shaxslararo oqilona taqsimlanmasligi va shaxsni qat'iy yumush bilan shug'ullanishga majbur etilganligi;
- hozirgi davrda ayrim kasblarning nufuzini kamayib ketayotganligi talabalarning o'quv motivlariga kuchli ta'sir qilayotganligi;

- o'g'il va qizlarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'ularining beqarorligi va ularning shakllanishining orqada qolishi;

- yoshlar o'rtasida borliqqa, jamiyatga, shaxslararo munosabatga, isrof-garchilikka, fidoyillika nisbatan loqaydlikning mavjudligi va boshqalar.

Shunday ekan, yuqoridagi ijobiy omillarni kuchaytirish, salbiy omillar ta'sirini kamaytirish va yo'qotish chora tadbirlarini belgilab borish va integratsion jarayonda innovatsion omillarga alohida e'tibor berish, psixologik asoslarini o'rganish hamda tahlil qilib borish ijobiy natija beradi.

Mustaqil fikr-mulohaza insonda mavjud bilimlarni, fikr va voqelikka bo'lgan munosabatlarning erkin yuzaga chiqarilishidir. Albatta, ushbu jarayon o'z-o'zidan ro'yobga chiqmaydi, ayniqsa ta'lim tarbiyada.

Ma'lumki ta'lim-o'qituvchi va o'quvchi orasida o'rnatiladigan pedagogik munosabatlar majmuidir. Ana shu munosabatlarda o'zaro ishonch, talab va tartib muhimdir, ya'ni bilimlar ortib boradi, intellekt mukamallashadi.

Ta'lim tizimiga joriy etilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan ko'zlanayotgan asosiy maqsad ham xuddi ana shundadir. Yangicha yondashuv jarayonida bilim talabalarning o'z ijtimoiy tartiblari asosida paydo bo'ladi va xulq-atvor shaklini ham o'zgarishiga ta'sir qiladi. Mustaqil fikrlarni bildirar ekan, talaba ta'lim jarayonining faqat sub'yekti sifatida ham namoyon bo'ladi, ya'ni teng huquqli ta'lim dialogini vujudga keltiradi.

Ayniqsa ta'limni muammoli tashkil etish talaba o'quv faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonni yanada muvoffaqyatliroq chiqishi uchun psixologik asosga e'tiborni qaratish kerak.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil etilganda bilim egallashning bir qancha bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlari mavjud bo'lib, tayyor bilimlarni o'quvchi ongiga etkazish, esga olish, esda saqlash, qayta esga tushurish, so'zlab berish, yozma ifodalash kabi holatlar bilish, tushunish darajalarini ifodalaydi. Bu darajalarda bilim oluvchidan ijodiy yondashuv talab etilmaydi. O'zlashtirishning keyingi darajalarida o'quvchilar olgan bilimlarini amalda tatbiq etishi, ma'lum natijalarni qo'lga kiritishi, to'ldirishi, boyitishi, o'zgartirishi, o'zining mustaqil nuqtai nazariga ega bo'lishi talab etiladi. Bu o'zlashtirish darajalari uchun muammoli yondashuv ahamiyatli hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1.Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). – Toshkent: Moliya nashriyoti. 2003.

2.Selevko G.K. Sovremennoye obrazovatelnoye texnologii. – Moskva: Narodnoye obrazovaniye. 1998.

3. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 2004.

4. O'.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: "Fan" nashriyoti. 2006.

5. N.T. Omonov, N.H. Xojayev, S.A. Madayorova, E.U. Eshchonov. – Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA" 2009.

6. Саттаров К.К., Тухтамишева Г.К., & Нуриддинов Б.Р. (2021). Совершенствование технологии получения муки из зерна пшеницы. Образование и право, (7), 236-241.

7. Тухтамишева Г.К., & Саттаров К.К. (2021). МАХАЛИЙ БУҒДОЙ ДОНИДАН ЮҚОРИ СИФАТЛИ УНЛАРНИ ОЛИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. Scientific progress, 2(4), 1003-1101.

8. Suvanova F., Qobilova N., Tuxtamishova G. IMPROVEMENT OF SOLVENT RECOVERY TECHNOLOGY IN OIL EXTRACTION PRODUCTION //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. А1. – С. 209-212.

9. S. Tukhtamishiev, R. Xudayberdiyev, and G. Tukhtamishova "MECHANIZED APPARATUS FOR CUTTING MELON FRUIT INTO ANNULAR SLICES." Science and innovation 2.A1 (2023): 252-255.

10. Mamrajab o'g'li, J. A., Zokirjon o'g'li, X. J., & Murodjon o'g'li, M. K. (2023). OLMA MEVASIDAN OLINADIGAN SHARBATLARNI TARKIBINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH.

11. Саттаров, К., & Жанкоразов, А. (2021). ИССЛЕДОВАНИЕ ВАЖНЕЙШИХ ХАРАКТЕРИСТИК КАТАЛИЗАТОРОВ ГИДРОГЕНИЗАЦИИ. *Збірник наукових праць ЛОГОΣ*.

Nurmuxamedov, A., & Jankorazov, A. (2023). ANALYSIS OF THE METHODS OF IMPROVING THE FRYING PROCESS IN THE PRODUCTION OF VEGETABLE OILS. *Science and innovation*, 2(A1), 266-271.

12. Sattarov, K. K., Kh, M. K., & Jankurozov, A. M. (2022). Economic evaluation of technological modes and parameters of staged hydrogenation of cotton oil. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 1978-1981.

13. Sattarov, K. K., Hamdamov, M. B., & Tashmurotov, A. N. (2021). Selection and research of new modifications of stationary promoted nickel-copper-aluminum catalysts. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 438-447.